

5-SINF "ONA TILI" DARSLIGIDA BERILGAN NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISHGA OID O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI

**Mardiyeva Dilnura Adhamjonovna**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining  
Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

**Baxriyeva Durdona Zayniddin qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining  
Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ona tili metodikasida nutqiy ko'nikmalarni o'stirishda test-sinovlari, topshiriqlar va ta'limiy o'yinlarning samarasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi. O'quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, demak, ona tili mashg'ulotlari samarali o'tgan bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, tafakkur, ravon, talaffuz, malaka, yozma nutq, og'zaki nutq, matn, topshiriq.*

ANALYSIS OF EDUCATIONAL TASKS RELATED TO THE FORMATION OF  
SPEAKING SKILLS GIVEN IN THE 6TH GRADE "MOTHER TONGUE" TEXTBOOK

**Mardiyeva Dilnura Adhamjonovna**

*Student of Kattakorgan branch of Samarkand State  
University named after Sharof Rashidov*

**Bahriyeva Durdona is the daughter of Zayniddin**

*Student of Kattakorgan branch of Samarkand State  
University named after Sharof Rashidov*

**Abstract:** *This article comments on the effectiveness of tests, tasks and educational games in the development of speaking skills in the native language methodology. If the students think creatively independently and are able to express the product of their thoughts correctly and fluently in oral and written forms in accordance with the speech conditions, then the mother tongue training has been effective.*

**Key words:** *speech, thinking, fluency, pronunciation, proficiency, written speech, oral speech, text, assignment.*

АНАЛИЗ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ, СВЯЗАННЫХ С ФОРМИРОВАНИЕМ НАВЫКОВ  
ГОВОРЕНИЯ, ПРИВЕДЕННЫХ В УЧЕБНИКЕ «РОДНОЙ ЯЗЫК» ДЛЯ 5 КЛАССА.

**Мардиева Дилнур Адхамжонова**

*Студентка Каттакорганского филиала Самаркандского государственного  
университета имени Шарофа Рашидова*

**Бахриева Дурдона – дочь Зайниддина.**

*Студентка Каттакорганского филиала Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова*

**Аннотация:** В данной статье комментируется эффективность тестов, заданий и обучающих игр в развитии навыков говорения по методике родного языка. Если учащиеся творчески мыслят самостоятельно и умеют правильно и бегло выразить продукт своей мысли в устной и письменной формах в соответствии с речевыми условиями, то обучение родному языку было эффективным.

**Ключевые слова:** речь, мышление, беглость, произношение, грамотность, письменная речь, устная речь, текст, задание.

**KIRISH**

Ma'lumki, ta'lim sifatini oshirishda ta'lim beruvchining ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati, ta'lim oluvchining munosabati bilan bir qatorda ta'lim vositalari ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim vositalari orasida eng ko'p fudalaniladigani, shubhasiz, darsliklardir. Amaldagi 5-sinf ona tili darsligi N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopovalar hammuallifligida yaratilgan bo'lib, "Kirish" va "Takrorlash" dan keyin "Fonetika. Grafika", "Talaffuz va imlo me'yorlari", "Leksikologiya", va "O'quv yili oxirida takrorlash" nomli boblarga ajratilgan 136 ta darsdan iborat. Darslik ko'rinishi, dizayni jihatdan 5-sinf o'quvchilari uchun mos. Shuningdek, darslikni o'rganish davomida Komiljon va Donoxon ismli ramziy bolakaylarning hamroh qilib qo'yilishi ham yaxshi g'oya. Shuningdek, mashqlar orasida o'quvchilarga notanish bo'lgan so'zlar lug'at shaklida berilib, izohlangan. O'quvchilarning ko'pchiligi uyda kimningdir yordamida matn tuzishadi, undagi so'zlarning grammatik vazifasiga e'tibor bera olmaydi, yoki bunday qo'shimcha topshiriq ularni chalg'itadi. Shunday ekan, matn tuzish uchun berilgan topshiriqlarda o'quvchilarning diqqatini bir tomonga yo'naltirgan mavzularga qaratish lozim, ya'ni ular uchun qiziq bo'lgan sarlavha asosida matn yaratish topshirig'i berilishi va unda asosan, mazmunga e'tibor qaratishlari kerakligi aytilishi lozim. Nutqni o'stirishda ularning lisoniy malakasini va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv topshiriqlarini berib boriladi.

Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, «mening farzandim chet tillarini biladi-yu, ona tilini bilmaydi, degan gap Yangi O'zbekistonga ma'qul emas». «Chet tilini bilishi kerak, lekin ona tilini bilishga majbur», — deya qo'shimcha qildi prezident. O'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishlari uchun tegishli sharoit yaratib berish, yurtimizda va xorijda o'zbek tilini o'rgatadigan o'quv markazlarini ko'paytirish zarur. Ayni paytda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz turli ma'lumotlarni asosan Internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining

kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, o'zbek tilini keng targ'ib etish bo'yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim.

G'.Hamroyev ta'kidlashicha "Bugungi kunning eng muhim masalasi maktabda ona tili ta'limini insonparvarlashtirishdir. Shunda ona tilini o'rganishga o'quvchilarida katta qiziqish uyg'onadi. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar ona tili oddiy o'quv predmeti emas, qadriyat sifatida o'qitilsa, o'quvchilarda o'z-o'zida teran tafakkur va milliy g'urur shakllanadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'z ona tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o'rganishlari kerak. Bu so'z va matnlarda aks etgan, ammo ular bilan qanday ishlash kerak? Albatta, pragmatik xarakterdagi o'quv topshiriqlari orqali. avval "Ona tili" fani orqali o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning urf-odat va qonuniyatlarini o'rganadilar. Keyinchalik esa o'z ona tilida anglash, fahmlash, nutq so'zlash, insho yozishni o'rganibgina emas, balki topshiriqlar orqali o'quv lug'atlariga yo'naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy tilning ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi."

5-sinf ona tili darsligida nutqni rivojlantirishga bir qancha topshiriqlar berib o'tilgan.97-dars soati ajratilgan "Matn va lug'at ustida ishlash" mavzusi orqali buni ko'rib chiqamiz.Birinchi navbatda topshiriqlar berilgan ya'ni "Kelajakda kim bo'lasan?" ushbu matn orqali o'quvchilarning faqatgina yozish va tinglash ko;nikmalarini shakllantirmasdan nutq komponentlarini ham rivojlantirishga qaratamiz. Dastlab bu matn bilan tanishib olamiz.

Kelajakda kim bo'lasan?

Muhandislik eng qadimgi kasb-korlardan biri sanalgan. Ilgari Sharqda binokor, yer o'lchovchi, bino va inshootlarni loyihalovchi, geometriya bilan shug'ullanuvchi kishilarni umumiy nom bilan "muhandis" deb ataganlar. Bag'dod, Damashq, Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlarda hozirgacha saqlanib qolgan qadimiy bino va inshootlar qurilishida foydalanil gan murakkab geometrik shakllar, arklar, gumbazlar, qubbalar, jumladan, sug'orish va suv chiqarish inshootlari (koriz, sardoba), charxpalak (chig'ir) muhandislik qadimdan taraqqiy etganligini bildiradi.

("Biz bilgan va bilmagan dunyo" kitobidan)

Bu matnda "muhandis"kasbiga e'tibor qaratilgan o'quvchi muhandis kasbini qanaday ekanligini mana shu matn orqali bilib oladi.Lekin bu bizga kamlil qiladi. O'quvchilarga lug'atdan foydalangan holda "muhandis "so'zini izohli lug'atdan qarab chiqamiz.Dastlab ushbu matnni o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.Nimaga? degan savolni o'rta qo'ysak.Chunki o'quvchi ham tinglab ham ushbu matnni yodida qolgan holda nutqida bayon qilishi va shu orqali nutq ko'nikmasini ham rivojlantirishi mumkin.Keyingi topshiriq ushbu matn orqali o'quvchilarga nima olganliklari va qanday kasbga qiziqishlarini og'zaki so'rab olamiz

Munosabat bildiring.

1.Siz bu kasbga qiziqasizmi?Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

2.Joy nomlari,tarixiy,arxaik so'zlarni ajratib,ko'chiring

MUHANDIS-[a.-injener,texnik;handasa (geometriya)ni yaxshi biluvchi,quruvchi usta]

O'quvchilarni o'zlari o'qiyotgan binoni ham muhandislar qurganini ma'lumot yuzasidan keltirib o'tsak bo'ladi.O'quvchilarni bu matn orqali kasbga ham yo'naltirish mumkin.

340-mashqqa keladigan bo'lsak bu mashqni qiziqarli o'tkazish maqsadida metoddan foydalanamiz.Ya'ni "Kim chaqqon" o'yini orqali darsni o'tkazamiz.Bu o'yinda kasblarning rasmlari doskaga ilib qo'yiladi.Dastlab ikki guruhga bo'lib olgan holda har bir guruhdan bir kishi chiqib rasm qaysi kasb egalari haqida ekanligini aytishlari lozim.Qaysi jamoa rasmdagi kasbni qaysi kasb ekanligini va qanday vazifani bajarishini ifodali nutq orqali iro etsa o'sha guruhga 1balldan berib boriladi.



O'qituvchi



Uchuvchi



Kulol

O'qituvchi- muallim — turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis.

Uchuvchi- Uchish apparatlarini boshqaruvchi, haydovchi mutaxassis.

Tarjimon- tarjima ishi bilan, ya'ni bir tildagi (manba tili) yozma yoki og'zaki matnga boshqa bir tilda (tarjima tili) yozma yoki og'zaki ekvivalent matn yaratish bilan shug'ullanadigan mutaxassis.

Styuardessa-Samolyot yoki kemalarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi shaxs

Kutubxonachi- Kutubxonada kitob-larni saqlash, o'quvchilarga berish va qabul qilish vazifalarini bajaruvchi shaxs, xodim. ♦ Kichkina suratni katta qiladigan fo-tochi kelgan, xohlaganlar kutubxonachi

Kulol- Loydan turli sopol idishlar, buyumlar tayyorlaydigan hunarmand.

Oshpaz- Bu tojikcha ot osh otiga (q.) 'pishir-' ma'nosini anglata-digan puxtan fe'lining oshpaz hozirgi zamon asosini ko'shib hosil qilingan bo'lib, 'ovkat pishirishni kasb kilib olgan kishi' ma'nosini anglatadi .

O't o'chiruvchi- Davlat yong'in xavfsizligi xizmati faoliyatini tashkil etish (hududlarni, binolar va inshootlarni, binolarni yong'in-texnik tadqiqotlari, yong'inni tekshirishning ma'muriy amaliyoti, yong'inlarning davlat statistik hisobi) qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi

Zargar-baddiy hunarmandlik soxasi; oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zebziynat buyumlari (taqinchoqlar), bezak buyumlari yasash kasbi.

342-mashq Uyga vazifa. Yurtimizdagi ota-bobolarimiz tomonidan quril gan ko'hna obidalardan biri haqida matn yozib keling.

Uyga vazifada o'quvchi yoki oilasida qanday kasb egalari borligi to'g'risida matn tayyorlashlari ham mumkin.Bu dars orqali ham so'zlarning ma'nolarini ham nutq ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.Dars qiziqarli o'tadi degan umiddaman.Hozirgi darsliklarning mazmuni nutq komponentlarini o'stirishga qaratilgan.Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy va mustaqil fikrlashga qaratilgan. . O'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi so'z ijodkorligi monologik nutqni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. O'qituvchi odam yo'naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollarni berish, o'yin vaziyatlarini yaratish orqali o'quvchi tashabbusini qo'llab-quvvatlashi darkor. Pedagogning sekingina hikoya mazmunini, rejasini, voqealarning ehtimoliy rivojini, so'z shaklini aytib qo'yishi birgalikdagi so'z ijodkorligida muhim ahamiyatga egadir.

### **XULOSA**

Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki,unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin,unga bo'lgan e'tiborini tuysin.Agar o'qituvchi dars davomida"muvaffaqiyat muhitini"tashkil etib,o'quvchida o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam bersa,uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirib borsa takomillashgan o'quv jarayoni ham o'z-ozidan yuzaga keladi. Oshkoralik,ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi,ular keltirgan dalillarning tengligi,hamkorlikdagi bilimlar banki,o'zaro baholash va nazorat imkoniyati bilan belgilanadigan ta'limiy muloqot manbai yaratiladi. Demakki, o'qituvchining o'zi ham doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, pedagogik mahoratiniuzluksiz oshirib borishi, jahon va milliy pedagogik meros hamda ilm-fan yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda ta'lim jarayonini takomillashtirib borishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.O'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlari 2023-yil 25-oktabr[1;7-8]
- 2.G'ofir Hamroyev "Ona tilidan o'quv topshiriqlar tuzish metodikasi"(monografiya)2021 [82-83]
- 3.Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2023 [7;17]
- 4."O'zbek tilining izohli lug'ati " A.Hojiyev 1982 1-2-j

ILOVA .Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi darsligi asosida yangi nashr  
Toshkent- 2020